

## GERMANY'S MIGRATION POLICY AND IT'S PROSPECTS

<https://zenodo.org/10.5281/zenodo.14948254>

**Abdumannonov Bobomurod,**

*a 4th-year student of the "Political Science"  
program at the Faculty of International Relations,  
University of World Economy and Diplomacy.*

### **Annotation**

Migration, which holds a significant place in Germany's socio-economic and political life today, plays a major role not only in the country's domestic political issues but also in shaping its foreign policy. Since the late 20th century and continuing to the present day, migration processes have intensified worldwide, significantly influencing the internal and external economic and political relations of states, as well as international global interactions and the geopolitical situation. This article discusses the factors affecting the large influx of migrants to Germany, the German government's approach to migration and integration processes, and the role of immigrants in socio-political life.

### **Keywords**

migration, immigrants, "Gastarbeiter" (guest workers), "Economic Miracle" SPD, CDU, AfD, aging rate, pensioner, asylum seekers, refugees, Olaf Scholz, European Union, diaspora, parliamentary elections, "nationalism."

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, Germaniya iqtisodiy ehtiyojlar sababli mehnat migrantlarini qabul qilishni boshlagan. Buning sababi Ikkinchi Jahon Urushidan keyin juda katta miqdordagi qurbon berdi va yo'qotishlarni boshdan o'tkazdi. Bunga dalil sifatida urush davrida urush va ishga yaroqli aholining 7 milliondan ortiq qurbon va 10 milliondan ko'proq mayib-majruh va yaradorga aylanganini ko'rishimiz mumkin. Ushbu jarayon, ayniqsa, 1960-yillarda "gastarbeiterlar" (mehmon ishchilar) dasturi doirasida kuchaygan. Bu jarayon yuzasidan dastlab 1955-yil 20-dekabrda Italiya bilan, keyinchalik Turkiya, Gretsiya va Yugoslaviya bilan ishchilarni yollash bo'yicha shartnoma imzolanadi va bunday shartnomalar umumiy hisobda 10 ga yaqin davlatlar bilan imzolanadi. Shunday qilib Germaniya qisqa vaqt ichida urushda yo'qotilganlarning o'rnini chet el ishchi kuchini yollash evaziga qoplay oldi.<sup>1</sup> Ikkinchi jahon urushidan keyingi Germaniyaning iqtisodiy tiklanishida immigrantlar juda muhim rol o'ynadi. Bu

jarayon, ayniqsa, Germaniyaning “Iqtisodiy mo’jiza”si (nemischa: Wirtschaftswunder) davrida (1948–1960-yillar) sezilarli bo’ldi

1. ([https://www.planet-wissen.de/geschichte/deutsche\\_geschichte/geschichte\\_der\\_gastarbeiter/index.html](https://www.planet-wissen.de/geschichte/deutsche_geschichte/geschichte_der_gastarbeiter/index.html))

Urushdan keyin Germaniya infratuzilmasi vayron bo’lgan, shuningdek, millionlab nemis erkaklari jang maydonlarida halok bo’lgan yoki nogiron bo’lib qolgan. Bu iqtisodiyot uchun katta ishchi kuchi tanqisligini keltirib chiqardi. Immigrantlar bu bo’shliqni to’ldirishda hal qiluvchi rol o’ynadi.

1950-yillarda Germaniya Turkiya, Italiya, Gretsiya, Ispaniya va Yugoslaviya kabi davlatlar bilan mehnat migrantlarini jalb qilish shartnomalarini tuzdi. Ushbu dasturlar orqali millionlab odamlar Germaniyaga kelib, sanoat va qurilish kabi sohalarda ishladilar. Ular og’ir va past haq to’lanadigan ishlarda ishlaganlar, masalan: zavodlarda ishlab chiqarish liniyasida va shu kabi xizmat ko’rsatish sektorlarida.

Iqtisodiy o’sishning asosiy omillaridan biri sifatida immigrantlar, ya’ni ularning Germaniya ishlab chiqarish sektorining o’sishini ta’minlashga yordam bergani ham hisoblanadi. Masalan, ular minimal ish haqiga rozi bo’lib ishlagan, lekin mahalliy nemislardan ko’ra nisbatan kamroq daromad olishsada o’zlarining yurtidagi oyliklardan baland edi va bu orqali mahalliy nemis korxonalarini o’zlarining xarajatlarni qanchadir kamaytira olishdi. Shunda qilib bu jarayon mahalliy nemis ishchilariga yuqori malakali va yuqori daromadli ishlarga o’tishiga imkon berdi. Immigrantlar nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy o’zgarishlarga ham sabab bo’lishdi. Ular Germaniyaning demografik tarkibini o’zgartirdi. Turli milliy va madaniy guruhlar jamiyatda yangi ijtimoiy dinamikani keltirib chiqardi.

Bugungi kunga kelib esa urushdan keyingi immigrantlarning avlodlari Germaniyada muhim iqtisodiy, siyosiy va madaniy rol o’ynaydi. Ularga misol qilib Aydan Özoğuz, Cem Özdemir, Dunja Hayali va Futbol bo’yicha jahon chempioni Mesut Özil kabi mashxur insonlarni ko’rsatishimiz mumkin. Ular kichik va o’rta bizneslar ochib, iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlagan. Germaniyaning aholi sonining pasayishini qisman bartaraf qilgan va statistikaga murojaat qiladigan bo’lsak Germaniya aholisining 25% atrofidagi aholisi kelib chiqishiga ko’ra immigrant hisoblanadi.

2023-yil iyul oyi holatiga ko'ra Germaniya aholisi 83.5 million atrofida va ularning deyarli 13.9 millioni chet el fuqarolari va 21.2 millioni kelib chiqishiga ko'ra immigrant hisoblanadi va bu degani ayni damda Germaniya aholisining har 4 tadan bittasi immigrant kelib chiqishiga ega degani.<sup>2</sup>

[https://www.destatis.de/EN/Themes/Society-Environment/Population/Migration-Integration/\\_node.html](https://www.destatis.de/EN/Themes/Society-Environment/Population/Migration-Integration/_node.html)). Bu ko'rsatkich bilan ya'ni eng ko'p immigrantlar yashashiga ko'ra Germaniya AQSH dan 2-o'rinni qayd etmoqda.<sup>3</sup>

Bunday katta miqdorda immigrantlarning turli muammolari va hujjatlariga oid ishlarni tartibga solish uchun Germaniya "Bundesamt für Migration und Flüchtlinge (BAMF)" ya'ni "Migratsiya va qochqinlar bo'yicha federal idora (BAMF)" mavjud.

2.

[https://www.destatis.de/EN/Themes/Society-Environment/Population/Migration-Integration/\\_node.html](https://www.destatis.de/EN/Themes/Society-Environment/Population/Migration-Integration/_node.html).

3.

<https://qalampir.uz/uz/news/migrantlar-uchun-eng-zhozibador-davlatlar-k-aysi-migrantlar-uzi-k-ancha-55646>)

Ana shu yuqoridagi keysdan kelib chiqadigan bo'lsak hozirgi kunda ham hukumat anchagina katta iqtisodiy muammolarga duch kelmoqda. Garchi 2024-yil hisobiga ko'ra YaIM ko'rsatkichlari bo'yicha jahon reytingida 1 pog'ona oldinlagan bo'lsada, ya'ni 4-o'rindan Yaponiyani ortda qoldirib 3-o'ringa chiqib olgan bo'lsada ahvol yomon holatda(<https://worldpopulationreview.com/countries/by-gdp>). Bunga asosiy sabablar sifatida Rossiya-Ukraina urushi boshlaganidan beri, Rossiyaning arzon gazidan mahrum bo'lgani, Germaniya iqtisodining asosiy eksport va import qiluvchi savdodagi sheriklari AQSH va Xitoyga bog'lanib qolganli va so'nggi o'n yilliklarda ilk bor yevroning AQSH dollariga nisbatan qadri tushib ketganligi ham keltirilmoqda. Shunday iqtisodiy muammolardan kelib chiqib ko'pincha siyosiy partiyala migratsiya yana ham qat'iy cheklovlar qo'yilishi to'g'risida ko'plab debatlar tashkil qilinmoqda. Bundan buyog'iga ham migratsiya oqimining yengillashtirilishi yoki ko'proq cheklovlar qo'yilishi katta ehtimol bilan iqtisodiy ahvolga bog'liq.

Germaniya aholisining 3.2 millioni 65 va undan katta yoshdagi pensionerlar hisoblanadi. Germaniyada pensiya yoshidagilardan tashqari 80 milliondan ortiq aholisi mavjud bo'lsa ham 2024-yilda 3.4 million bo'sh ish o'rinlari e'lon qilingan.

Statistikaga ko'ra hozirgi aholining 15 yoshdan 49 yoshgacha bo'lgan qismini 3 dan 1 qismi aynan immigrantlar ulushiga to'g'ri kelmoqda. Prognozlarga ko'ra holat tahminan shu yo'sinda ketadigan bo'lsa 2030-yilga kelib tahminan 7.4 million bo'sh ish o'rni mavjud bo'lishi mumkin ekan. Albatta bu jarayon tug'ilish, qarish va o'lim darajasiga va tashqaridan keladigan immigrantlar hisobiga ham bog'liq.<sup>4</sup>

Germaniya 1951-yildagi Qochqinlar maqomi to'g'risidagi Jeneva konvensiyasi doirasida qochqinlarni qabul qiladi. Mamlakat 2015-yilgi migratsiya inqirozi paytida bir milliondan ortiq qochqinni qabul qilgan. 2015-yil Yevropa Ittifoqida boshpana so'rovlarini ko'paytirish tendentsiyasining cho'qqisi hisoblanadi. Yevropa statistika idorasi ma'lumotlariga ko'ra, yilning birinchi yarmida Yevropa Ittifoqida 400 000 ga yaqin odam xalqaro himoyaga murojaat qilgan; bu raqamlar 2014-yilga nisbatan 85 foiz atrofida o'sdi. Germaniyadan 2015-yildagi raqamlar 813 480 boshpana arizasini ko'rsatadi. 2015-yilning noyabriga kelib, Germaniyaga boshpana so'raganlarning 60 foizdan ortig'i bor-yo'g'i uchta davlatdan kelgan: Suriya (deyarli 40 foiz), Afg'oniston (taxminan 12 foiz) va Iroq (9 foizga yaqin).

2024-yil Fevralda Germaniya O'zbekistonning o'zi uchun 50.000 ta bo'sh ish o'rni taklif qilgandi. Germaniya migratsiya siyosati sohasida muhim o'zgarishlar amalga oshirmoqda. 2024-yil 15-sentabr kuni Samarqandda bo'lib o'tgan muzokaralarda Germaniya kansleri Olaf Shols va O'zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyev "Migratsiya va mobillik sohasida har tomonlama sheriklik to'g'risida" hukumatlararo bitim imzoladilar. Ushbu bitim malakali mutaxassislar, talabalar, jurnalistlar va olimlarning Germaniyada ishlashi va o'qishi uchun imkoniyatlarni kengaytiradi.

---

4. <https://www.dw.com/en/pension-fund-crisis-looms-in-germany-as-population-ages/a-68566053>

Germaniya O'zbekistondan tashqari Xitoy, Hindiston, Filippin, Pokiston kabi davlatlar bilan mehnat migratsiyasi sohasida hamkorlik qilmoqda. Bu davlatlardan, asosan, tibbiyot, parvarishlash va texnik mutaxassislik sohalarida malakali ishchilar jalb qilinmoqda. Germaniya xorijiy davlatlardagi ishchi kuchining malakasini oshirish uchun qo'shma dasturlarni amalga oshiradi. Masalan, O'zbekistonda malakali ishchilarni Germaniya mehnat bozoriga tayyorlash bo'yicha o'quv kurslari tashkil etilgan.

Sotsial-demokratik partiya (SPD) - migratsiya siyosatini insonparvarlik tamoyillariga asoslangan holda olib boradi. Ular qochqinlar va boshpana

izlovchilarga yordam berish, integratsiya jarayonlarini qo'llab-quvvatlash tarafdori. Shu bilan birga, xavfsizlikni ta'minlash va noqonuniy migratsiyaga qarshi choralarni kuchaytirish masalalariga ham e'tibor qaratadi. Xristian-demokratik ittifoqi (CDU) va Xristian-sotsial ittifoqi (CSU) migratsiya siyosatida qat'iyroq pozitsiyani egallaydi. Ular noqonuniy migratsiyaga qarshi kurashni kuchaytirish, chegaralarni nazorat qilish va deportatsiya jarayonlarini tezlashtirish tarafdori. Shuningdek, muhojirlarning Germaniyaga kirishiga to'g'ridan-to'g'ri chegarada taqiq qo'yishni talab qilishmoqda. Germaniya uchun muqobil AfD (Alternative fuer Deutschland) migratsiya siyosatida eng qat'iy pozitsiyani egallaydi. Ular noqonuniy migratsiyaga qarshi keskin choralarni qo'llash, qochqinlar qabulini cheklash va Germaniyaning milliy manfaatlarini himoya qilishni talab qilishadi. Shuningdek, ular deportatsiya jarayonlarini tezlashtirishni talab qilishmoqda. Germaniyada migratsiya masalalari siyosiy partiyalar o'rtasida muhim mavzu bo'lib, har bir partiya o'z elektorati manfaatlarini hisobga olgan holda pozitsiyasini belgilaydi. Bu esa mamlakatning umumiy migratsiya siyosatiga ta'sir ko'rsatadi.

Dunyoning turli nuqtalaridagi ko'plab fuqarolar urushlarr, tabiiy ofatlar va boshqa davlatlar bilan urush sababli yuzaga kelgan notinch va beqaror siyosiy holatlar tufayli Germaniyaga bo'lgan migratsiya oqimi yildan yilga oshib bormoqda. Suriyadagi fuqarolar urushlari, Afg'oniston va Yaqin Sharqdagi notinch vaziyatlar sababli va ko'plab uchinchi dunyo mamlakatlaridan iqtisodiy qiyinchiliklar va ish o'rnining yetishmovchiligi sababli ko'plab omillar Germaniyada boshqa millat vakillari diasporalarining tobora kengayishiga olib kelmoqda. Garchi Germaniya hukumati qator davlatlar bilan malakali mehnat migrantlarini chaqirishga undovchi shartnomalarni qo'llab quvvatlashiga qaramasdan, ba'zi nemislar immigrantlarga nisbatan ba'zida "millatchilik" qarashlariga ega. Va boshpana so'rab Germaniyaga kelayotkan qochoqlar va muhojirlarning sonini oshib ketayotkanligi ham shundoq Yevropa Ittifoqining "yuki"ga qo'shimcha ma'suliyat yuklaydi. 2024-yilda 3.4 million bo'sh ish o'rni mavjud bo'lgan bo'lsada, nemis tili va yetarli ish malakasiga ega bo'lmagan har bir qochoq va muhojirlarni boshpana va turar-joy bilan ta'minlash ham davlat iqtisodi oldida turgan alohida masala hisoblanadi. Chunki bunday muhojirlarni nemis jamiyatiga integratsiyasini qo'llab quvvatlash uchun ularga boshpana, til kurslari va ba'zi harajatlari davlat tomonidan qoplab beriladi. Bunday katta harajatlar dunyoning eng katta uchinchi iqtisodga ega davlatining 2024-yildan beri iqtisodiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan eng katta 3-omil hisoblanadi. Bu jarayon shu yo'sinda davom etsa nemis iqtisodi kelasi yillarda yapon va hind iqtisodida ortda qolib ketishi mumkin. Mana shunday iqtisodiy faktorlarni hisobga olib ham ham 2025-yil Fevraldagi Parlament saylovlarida AfD, CDU va CSU kabi partiyalar saylovoldi

dasturlarida noqonuniy migratsiyani qat'iy cheklovchi va chegara nazoratini kuchaytiruvchi tashabbuslar bilan chiqishmoqda. Ularga qarama qarshi tarzda minglab nemislar bu partiyalarning tashabbuslarini va qarashlarini "millatchilik" sifatida baholab chiqishlar qilishyapti. Germaniyadagi tug'ilish, o'lim va qarish darajalarini hisobga oladigan bo'lsak, nemis iqtisodi o'zining darajasini saqlab qolish uchun bundan buyog'iga hozirgidan ham ko'p malakali mehnat immigrantlariga muhtoj. Yuzaga kelgan iqtisodiy qiyinchiliklar va nemis xalqining qochoqlarga nisbatan salbiy tomonga o'zgarayotgan jamoatchilik fikri tufayli qochoqlar va boshpana izlovchilarga yaqin kelajakda Germaniyaga migratsiya qilish imkoniyatlar keskin kamayishi mumkin va qochoqlar tufayli shakllanib qolgan stereotip tufayli malakali mehnat muhojirlariga ham viza olishda qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. [https://www.planet-wissen.de/geschichte/deutsche\\_geschichte/geschichte\\_der\\_gastarbeiter/index.html](https://www.planet-wissen.de/geschichte/deutsche_geschichte/geschichte_der_gastarbeiter/index.html)
2. [https://www.destatis.de/EN/Themes/Society-Environment/Population/Migration-Integration/\\_node.html](https://www.destatis.de/EN/Themes/Society-Environment/Population/Migration-Integration/_node.html).
3. <https://qalampir.uz/uz/news/migrantlar-uchun-eng-zhozibador-davlatlar-k-aysi-migrantlar-uzi-k-ancha-55646>
4. <https://www.dw.com/en/pension-fund-crisis-looms-in-germany-as-population-ages/a-68566053>
5. <https://www.bpb.de/themen/migration-integration/regionalprofile/deutschland/255670/wie-stehen-die-deutschen-parteien-zu-den-themen-migration-integration-flucht-und-asyl/>
6. <https://www.bamf.de/DE/Themen/Forschung/Veroeffentlichungen/Migrationsbericht2022/MigrationsgeschehenDeutschland/migrationsgeschehendechland-node.html>
7. (<https://www.bpb.de/themen/migration-integration/regionalprofile/deutschland/256276/flucht-und-asyl-in-deutschland/>).